FE'L [-ma]	-(a)y	-(a)ylik	deb	Siz qiynal/wnng deb, sizga lug'at sotib oldim. Uni ko'ray deb keldim. (so 'zlashuv uslubida) U o'qisin deb, men yana bir necha kitob olib keldim. Do'stim xato qil/wasin deb, men unga yordam berdim.
	-gin	-(i)ng		
	-sin	-sinlar		
FE'L[-ma]	-(a)y	-(a)ylik	degan maqsadda/ umidda/ niyatda/ ilinjda	Ishni o'z vaqtida bajaraylik degan maqsadda, muhandislar tinimsiz ishlashdi.
	-gin	-ing		
	-sin	-sinlar		

48

18-MA vZrj: TO SIQSIZLIK MA'NOSINING IFODALANISHI						
Grammatik materiallar '1					Misollar	
(qancha/ s qanchalik/ ^ naqadar/ ^ garchi/ O. garchand)	FE'L [-ma]	-sa	-m	-k	ham (-da/ /hamki), (baribir)	U kechirim so'ra/?/r/sa ham, (baribir) men uni kechirdim.
			-ng	-ngiz		Uni diqqat bilan eshitsam ham, (baribir) hech nimani tushun/Hadim.
			-	-lar		Uni qanchalik diqqat bilan eshitsam-da, tushunmadim.
FE'L[-ma]	-gan	-gan	-im	-miz	bilan,...	U o'zbek tilini ko'p o'rgangaiii bilan, (baribir) yaxshi gapira olmayapti. (=o'rgansa ham)
			-ing	-ingiz		
			-i I	-lari		
FE'L[-ma]	-gan	-im	-miz	FE'L	-(a)r f/-mas]di...	U mendan iltimos qil/wgandayam, (baribir) men unga yordam berardim.
		-ng	-ngiz			
		-i	-lari			

49

O'tgan zamonda					
FE'L[-ma]	-gan	-im	-miz	-ga qaramay, /-ga	Qancha tushuntirganimga qaramay, u vazifani noto'g'ri bajardi.
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari	qaramasdan,	
Hozirgi zamonda					
FE'L[-ma]	-(a)yotgan	-im	-miz	-ga qaramay, /-ga	Kelayotganiga qaramasdan, uni kutmadim.
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari	qaramasdan,	
YvmSlamonda					
FE'L[-ma]	-ish	-im	-miz	-ga qaramay, /-ga	Ertaga imtihon bo'liishiga qaramay, ular kechgacha sayr qilishdi.
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari	qaramasdan,	

50

OT, SIFAT, RAVISH	-lik	-im	-miz	-ga qaramay, /-ga	Odam ko'pligiga qaramay, bo'sh joylar hali boredi. Chaqqonligingizga qaramay, ishni kech tugatdingiz.
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari	qaramasdan,	
FE'L	-sin/-sa (-sa...-sin, -masa...),	FE'L takrorlanadi		-masin, (baribir)	Kelsin, kelmasin, baribir hech narsa o'zgarmaydi.
FE'L	-gan -(a)yotgan -(i)sh	-im	-miz	-dan qat'i nazar	Kim bo'lishingizdan qat'i nazar, awalo, yaxshi odam bo'ling.
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		

51

19-MAVZU: QIYOSLASH VA O'XSHATISH MA'NOSINI IFODALASH

QANDAY? KIMDEK? NIMADEK? KIM(NIMA)-GA OX'SHAYDI?				
Grammatik materiallar				Misollar
Bu (shaxs, narsa, harakat nomi)	bu(n)	-dan	qanday (-roq) [emas]	Meva sabzavotdan qimmat(roq). Temir yog'ochdan mustahkamroq. Yozish gapirishdan qiyinroq.
..... esa				Men vazifalami to'liq bajardim, u esa to'liq bajarmadi.
.....bo'lsa		-m	-k	Men mavzuni yaxshi tushundim, sen bo'lsang hatto eshitmading. Toskentda havo ochiq, Samarqandda bo'lsa yomgir yog'ayapti.
		-ng	-ngiz	
		-	-lar	
Bu (shaxs, narsa, harakat nomi)	bu(n)	-ga qaraganda	SIFAT (-roq)[emas]	Bu bunga qaraganda balandroq. Sizning universitetingiz biznikiga qaraganda katta(roq).

52

Bu (shaxs, narsa, harakat nomi)	bu(n) (shaxs, narsa, harakat nomi)	-dan ko'ra	qanday (-roq)[emas]	Bu bundan ko'ra yaxshiroq (<i>qiyoslash ma'nosi kuchli, ya'ni birinchisi ikkinchisiga qaraganda ane ha afzal</i>) U mendan ko'ra bu sohada ane ha tajribali(roq). Sizdan ko'ra yaxshiroq bilaman.
Bu (shaxs, narsa, harakat nomi)	bu(n)	-ga nisbatan (sal, birmuncha, biroz, ane ha)	qanday (-roq)[emas]	U bunga nisbatan ane ha mustahkam. Bugun kechaga nisbatan ane ha salqin(roq). Nisbatan yomon emas.
OT	-dek(/-day/-ga o'xshab/kabi/singari)			Muzdek suv bering. Guldek (chiroyli) qiz. Bu narsa menga havodek zarur. Milliy qadriyatlarimiz kabi/singari tariximiz ham biz uchun qadrlı. (<i>kitobiy uslub</i>)

53

FE'L [-ma]	-gan	-dek (/day/kabi/singari)	U hech narsani tushunmi/gandek qaradi. Meni ko'rmagandek, u boshqa xonaga kirib ketdi (<i>lekin u meni ko'rdi</i>)
FE'L [-ma]	-gan	-ga	o'xshab U hech narsani tushunmangganga o'xshab menga qaradi. Nima uchun poyezdga kech qolgan odamga o'xshab o'tiribsiz?

54

20-MAVZU: CHEGARALASH MA'NOSINING IFODALANISHI						
QAYERCACHA?QACHONGACHA?						
Grammatik materiallar				Misollar		
OT		-gacha ³²		Ko'chagacha birga chiqdik. Bekatgacha birga bordik.		
(To/toki)	FE'L I-ina]	-gun	-im -ing -i	-imiz -ingiz -lari	-cha (/ga qadar)	Men kelgunimcha dam olib turing./ Men kelguncha dam olib turing. Biz borgunimizcha kutib turing. Quyosh botguncha qaytaman. Ular kelgunlariga qadar (=kelguncha) kutib turamiz. (<i>kitobiy uslub</i>) To vazifani bajar/w/guncha. ketmaymiz.

³²IZOH:

g → k: ... k + -gacha/ -guncha = kacha/kuncha tik + -guncha = tikkuncha, yo'lak+gacha= yo'lakkacha

g ~*q: ... q+ -gacha/-guncha = qacha/quncha chiq+guncha=cbiqquncha , qishloq+gacha= qishloqqacha

55

OT	-dan tortib, (to)	OT	-gacha	0'qituvchilardan tortib, to talabalargacha bu dastur bilan tanishib chiqishlari shart. Dushanbadan to jumagacha men navbatchiman.
Qachon? Qayer? Nima?	-dan boshlab	Qachon? Qayer? Nima?	-gacha	Bugundan boshlab jumagacha tayyorlanamiz. Keyingi haftadan boshlab dam olishingiz mumkin. (<i>qachongacha aniq emas</i>)

11.0 V ALAR

l-ilova

OLMOSHLAR

OLMOSHLAR	MISOL	IZOH
MEN BIZ SEN SIZ U ULAR	Men ertaga kelaman, siz-chi? Sizni juda hurmat qilaman. Ular juda bilimli talabalar ekan.	Siz, ular olmoshi birlikda qo'llanganda hunnat ma'nosini bildiradi. = Ular mening akam (<i>hurmat ma'nosida</i>).
0'ZIM 0ZIM1Z 0'ZING O-ZINGIZ 0'ZI CrZLARI	Sizga kitobinmi berib turaman, lekin keyin o'zimga qaytaring. (<i>menga qaytaring - noto 'g'ri</i>)	Ba'zan egalik va kelishik qo'shimchalarisiz ishlatilishi mumkin. O'zining uyi - o'z uyi. Egalik qo'shimchalarini olib, kishilik olmoshi o'rni qo'lanadi, ko'pincha shaxsga, ba'zan predmetga ishora qiladi. O'z olmoshi otlar oldida kelib, ayirib, ta'kidlab ko'tsatish uchun qo'lanadi va predmetni ta'kidlab, subyektga xos ekanligini ifodalaydi.

KIM? NIMA? Q AND AY? QAYSI? NECHA? QACHON? NEGA? NIMAGA? QANI?	Bu ikki kitobdan qaysi biri yaxshiroq? Nega buncha xafasiz?	Shaxsga (kim?), narsa-buyumga (nima?), belgiga (qaysi?, qanday?), miqdorga (necha?), vaqtga (qachon?), maqsad va sababga (nimaga?, nega?), o'ringa (qani?, qayerda?), harakatga (nima bo'ldi?, nima qildi?) nisbatan ishlatiladi.
MAMMA, BARCHA, BARI, JAMI. YALPI, BUTUN. HAR KIM, HAR NIMA, HAR BIR, HAR NARSA, HAR QAYSI	Darsga hamxna keldi. Hammasini (<i>narsa rna 'nosida</i>) olaman. <i>Har kim ham bu vazifani bajara olmaydi.</i> <i>Har bir ishni mas 'uliyat bilan bajarish kerak.</i>	Ular shaxs, narsa, belgi, harakatlami jamlab ifodalaydi. Har so'zi gapda fe'llar oldida kelsa, ravish hisoblanadi: <i>Har ko 'rganimda xursand bo 'laman.</i>
I.KIMDIR. NIMADIR. QANDAYDIR, QAYSIDIR, NEGADIR, NECHTADIR.	<i>U mendan qandaydir kitobni so 'rgan edi.</i>	predmet, belgi, hodisa haqidagi noaniq tasawurni bildiradi. Gumon olmoshlari asosan, ot va sifat o'mida ishlatiladi.

QANCHADIR 2. ALL AKIM, ALLANIMA, ALLAQANDAY, ALLAQANCHA, ALLANARSA, ALLAQACHON 3. BIROV, BA'ZILAR	<i>U mendan allaqanday kitob so 'rgan edi.</i> (ozgina hurmatsizlik, befarqlik ma'nosini beradi) <i>Ba 'zilar uni tushunmadilar.</i>	
HECH KIM, HECH NIMA, HECH BIR, HECH NARSA, HECH QAYSI, HECH QANDAY, HECH QAYERDA, HECH QACHON	<i>Hech kim uni tanimadi.</i> <i>Kechgacha hech narsa yemadi.</i>	Inkor ma'nosini bildiradi. Hech so'zi gapda fe'llar oldida kelsa, ravish hisoblanadi: <i>Bu to 'g 'rida hech tashvishlanmang.</i> Bo'lishsizlik olmoshlari ishtirok etgan gapning kesimi doimo inkor shaklda bodadi.

FE'L NISBATLARI

FE'L	NISBAT QO'SHIMCHALARI	IZOH
BERILDI SO'RALDI ISHLANDI ILINDI	<p>- l / - il</p> <p>Fe' V ++ zamon qo'shimchasi</p> <p>- n / - in</p>	<p>Fe'llarda harakatning bajaruvchisi noma'lum bodadi.</p> <p><i>Mukofot ber\ il+di.</i></p> <p>Fe'l asosi 'T'ga tugasa -in qo'shimchasi, "la"ga tugasa, -n qo'shimchasi qo'shiladi.</p> <p><i>Dars boshla+n+di.</i></p>
YUVINDIM K0'RINDING SUYANDI	<p>z'' — 1 / - U</p> <p>Fe' y ++ zamon qo'shimchasi</p> <p>- n / - in</p>	<p>Harakat bajaruvchining o'zi tomonidan bajariladi.</p> <p><i>Uyuvindi, yu 'ni o 'zini o 'zi yuvdi.</i></p> <p><i>Bugun deirsda ku 'rinmadingiz.</i></p>

60

BERISHDI KELISHY ARTI 0'QISFLADI	<p>Fe'l y + -sh/-ish + zamon qo'shimchasi</p>	<p>Harakat bir necha shaxs tomonidan bajariladi.</p> <p>-sh (-ish) qo'shimchasi -lar qo'shimchasini olgan aniq nisbatdagi fedga sinonim bodishi mumkin:</p> <p><i>Bolalar qo 'shiq aytishdi= aytidilar.</i></p>
CFQITDI 1CHIRDIM KETKAZDI SO'RATDIK YOZDIRDING	<p>Fe'l + -t/-tir/-dir/-gaz/-kaz/-qaz/-ir/-ar/-iz + zamon qo'shimchasi</p>	<p>Subyekt harakatni boshqa shaxslarga bajartiradi.</p> <p>-t: <i>o'qi+t, so'ra+t, ishla+t.</i> Bu qo'shimcha unli tovush bilan tugagan fed asoslariga qo'shiladi.</p> <p>-tir (-dir): <i>ayt+tir, kel+tir, yoz+dir, ko 'pay+ tir.</i> Jarangli undosh bilan tugagan fed asoslariga -dir, jarangsiz</p>

61

			<p>undosh bilan tugagan fe'l asoslariga (kel so'zidan tashqari) esa -tir qo'shiladi.</p> <p>-giz, -kiz, -qiz. -giz: <i>kir+giz, tek+kiz, ayt+qiz, tur+g'iz</i></p> <p>-gaz, -kaz, -qaz: <i>ko'r^gaz, ket+kciz, o't+qaz</i>. Jarangli irndosh bilan tugagan fe'l asoslariga -giz, -giz, -gaz, jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga esa kiz, -qiz, -kaz, -qaz qo'shimchalari qo'shiladi.</p> <p>-ir, -ar, -iz: <i>ich+ir, qayt+ar, tom+iz, oq+iz</i>. Bu qo'shimchalar undosh bilan tugagan bir bo'g'inli</p>
--	--	--	--

62

63			<p>so'zlarga qo'shiladi.</p> <p>Orttinna nisbat qo'shimchasi bir fe'lga birdan ortiq qo'shilishi mumkin: <i>ayt+tir+tir+di, yoz+dir! gizz di, keh tjr+tir+ di, ko'rsa+t+tir+di, oq+iz+dir+di, qa)t+arj_tir+di</i>. Bunda orttinna nisbat ma'nosi kuchayadi.</p>
----	--	--	---

63

KO'MAKCHI FE'L

№	KO 'MAKCHIFE 'LLI SO'Z QO'SHILMASI	MISOL	MA 'NO SI
1.	Fe'l + -b/-ib + olmoq	Mavzuni o'zim o'qib olaman. Kecha darsga bormadim, lekin mavzuni o'zim o'qib, tushunib oldim. Ustingizga kiyib oling, havo ancha sovuq.	Flarakatni subyekt o'zi uchun ba_jarishini bildiradi.
2.	Fe'l + -a/-y + olmoq	Men bu vazifani bajara olaman. (ya 'ni imkoniyatim bor) Men unga vaziyatni tushuntira oldim.	Flarakatni bajarish imkoniyatiga egalik, qodirlik ma'nosini beradi
3.	Fe'l + -b/-ib + bermoq	Men sizga bu narsani topib beraman. Iltimos, menga eshikni ochib bering	Flarakatning boshqa odam uchun bajarilishi ma'nosini bildiradi

64

		(ya 'ni men uchun).	
4.	Fe'l + -a/-y + bermoq	Men baribir yoza beraman. Men uni uyg'otsam ham, u uxlay berdi (yoki: uxlayverdi).	Harakat bajarilishi uchun to'siq, qarshilik yo'q.
5.	Fe'l + -a/-y + boshlamoq	Men o'zbek tilini o'rgana boshladim.	Flarakatning boshlanishi tna'nosini beradi.
6.	Fe'l + -b/-ib + bo'lmoq	Bu kitobni o'qib bo'ldim. Yozib bo'ldingizmi (yozishni tugatdingizmi)?	Tugallanganlik, to'la bajarilish ma'nosini beradi.
7.	Fe'l + -b/-ib + turmoq ³³	Biz tez-tez uchrashib turamiz. O'tirib turing (bir munch a vaqt), u hozir keladi.	Harakatning davomiyligi, takroriyliigi ma'nosini bildiradi.
8.	Fe'l + -a/-y + turmoq	Flozircha ishlay tur, keyin yana o'ylab ko'ramiz. Men kelgunimcha o'tira tur.	Flarakatning vaqtincha, boshqa hodisa yuz berguncha davom etishi ma'nosini bildiradi/

³³/ZOH: lekin bu holda gapda aniq vaqt (payt ma'nosmi bildiruvchi so'z) qo'llanilmaydi. Masalan, *U kelguncha uni shuyerda kutib turaman.* (Uni ikki soat kutib turaman - noto'g'ri).

9.	Fe'l + -b/-ib + yurmoq ³⁴	Uni doimo kuzatib yuramiz.	Harakatning uzoq davomini bildiradi.
10.	Fe'l + -b/-ib + qo'yimoq	Vaqtim boiganda, o'qib qo'yaman. Iltimos, unga shuni berib qo'ying. (<i>bu siz uchun qiyin emas</i>)	Haraktaning tez va oson bajarilishi ma'nosini bildiradi.
11.	Fe'l + -b/-ib + chiqmoq ³³	Kitobni o'qib chiqdim.	Harakatning to'la bajarilishi ma'nosini bildiradi.
12.	Fe'l + -b/-ib + yubormoq ³⁶	U o'yatnasdan gapitib yubordi.	Harakatning tasodifan, kutilmaganda bajarilishini, harakatning qisqa vaqt

³⁴ *IZOH:* Agar **yurmoq** fe'li buyruq maylining bo'lishsizlik shaklida bo'lsa, asosiy(yetakchi) fe'ldagi harakatning bajarilmasligi ma'qulligi ifodalanadi. Masalan, Gapirib yunnang ("gapirish ma'qul emas" ma'nosida)

³³ *IZOH:* **Bo'iraq** va **chiqmoq** yordamchi fe'Har ming farqi:

1) **Bo'lmoq** yordamchi fe'li har qanday fe'i bilan birika oladi.

Chiqmoq yordamchi fe'li esa faqat tayyor obyekt ustida bajariladigan harakatni bildiruvchi fe'llar bilan birikadi

Masalan: *Knob (tayyor obyekt)ni o'qib chiqdim.*

Mashq (mashq haliyo'q)niyozib bo'ldim.

2) Shu bilan birga obyekt "kirish" va "chiqish"ga ega bo'lishi kerak.

Masalan: *Kitobni o'qib chiqdim.*

Kitobning boshi(kirishi) va oxiri(chiqishi) bor.

³¹ *IZOH:* Buyruq mayli shaklida qo'langanda "iltimos" ma'nosini beradi.

Masalan: *Eshikni ochibyuboring ("ochvoring" - so'zlashuv uslubida)*

			ichida yuz berishini bildiradi.
13.	Fe'l + -b/-ib + qolmoq	Kecha bozorda do'stimni ko'rib qoldim. (<i>ya'ni tasodifan</i>),	Harakatning kutilmagan, tasodifan, harakat ekanligini bildiradi.
14.	Fe'l + -a/-y + qolmoq	Mayli, siz ham bora qoling. Iltimos, menga yordam bera qol.	1) O'zga shaxsning iltimosiga ruxsat, rozilik, ma'nosini beradi. 2) Yalinish, iltimos ma'nosini ham bildiradi.
15.	Fe'l + -b/-ib + ko'rmoq ¹⁷	Bu taomni yeb ko'ring, juda mazali.	Yetakchi fe'ldagi harakatni sinash, bilish uchun bajariladigan harakatni bildiradi.

¹⁷ *IZOH:* Ba'zan **ko'r** yordamchi fe'li bo'lishsizlik shaklida. bu>Tuq-istak maylida qo'langanda, harakatni bajarmaslikka qat'iy ta'kidlash, ogohlantirish ma'nosini beradi.

Masalan: *Bu ishni qila ko'rma.*

gin
Fel + -a/-y + ko'rma ng
sin

MODAL SOʻZLAR

-V	Modal soʻz	Misol	Maʼnosi
1.	shubhasiz	<i>Shubhasiz, siz haqsiz. (sizning haq ekaningizga shubha yo 'q)</i>	<i>Fikrning qat 'iyligi ta 'kidlanadi.</i>
2.	soʻzsiz	<i>So 'zsiz, bu vazifani bajarish qiyin, lekin biz harakat qilamiz.</i>	<i>Fikrning qat 'iyligi ta 'kidlanadi.</i>
3.	albatta	<i>Ertaga, albatta, universitetga boraman.</i> -Ertaga keling. -Albatta.	<i>Ishonch bildiradi.</i>
4.	tabiiy(ki)	<i>Tabiiy, siz bir o 'zingiz bu vazifani bajara olmaysiz.</i>	<i>Anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiyligini bildiradi.</i>
5.	rostdan ham	<i>Rostdan ham, bu taom juda mazali ekan.</i>	<i>Fikrning chinligi eslatiladi.</i>
6.	darvoqe	<i>Dan'oqe, bu gapni oldin ham aytgandingiz.</i>	<i>Fikrning chinligi eslatiladi.</i>

68

7.	aslida	<i>Aslida, men bu vazifa uchun mas'ul emasman.</i>	<i>Fikrning chinligi eslatiladi.</i>
8.	shekilli	<i>Darsga kech qoldim, shekilli.</i>	<i>Fikrning taxminiyligini bildiradi.</i>
9.	chamasi	<i>Vaqt bo'ldi, chamasi, endi boshlaylik.</i>	<i>Fikrning taxminiyligini bildiradi.</i>
10.	ehtimol	<i>Ehtimol, shundaydir.</i> <i>U meni, ehtimol, tushunmayotgandir.</i>	<i>Gumon bildiradi.</i>
11.	balki	<i>Balki, ertaga kelarsiz?</i> <i>Balki, bu noto 'g 'ridir.</i>	<i>Gumon bildiradi.</i>
12.	hoynahoy	<i>Hoynahoy, siz talaba bo 'Isangiz kerak. (mening fikrimcha)</i>	<i>Fikrning tasmolli ekanini bildiradi.</i>
13.	aftidan	<i>Aftidan, siz bu yerlik emassiz.</i> <i>Aftidan, u bizdan xafaga o 'xshaydi.</i>	<i>Fikrning tasmolli ekanini bildiradi.</i>
14.	har qalay	<i>Har qalay, yotnon bo 'Imadi.</i>	<i>Fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradi.</i>
15.	har holda	<i>Ularning fikrlarini aniq bilmayman, har holda, bizga qarshi bormasalar kerak.</i>	<i>Fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradi.</i>

69

16.	xususan	<i>Majlisda bir qancha masalalar ko 'tarildi, xususan, ta'lim tizimini isloh qilish masalasi ham.</i>	<i>Fikrning dalillanishini bildiradi.</i>
17.	masalan	<i>Bu ikki xalqning o 'xshash tomonlari ko 'p, masalan, urf-odatlari, milliy madaniyati.</i>	<i>Fikrning dalillanishini bildiradi.</i>
18.	aksincha	<i>-Juda charchadingizmi? -Yo 'q, aksincha, judayaxshi dam oldim.</i>	<i>Fikrning dalillanishini bildiradi.</i>
19.	jumladan	<i>Bu xabardan ko 'plar, jumladan, Murod ham hayron bo 'Idi.</i>	<i>Fikrning dalillanishini bildiradi.</i>
20.	afsus	<i>Afsus, bugun vaqtim yo 'q edi, borolmayman.</i>	<i>Afsuslanish va ajablanishni ifodalaydi.</i>
21.	esiz	<i>Esiz, kecha eshitmabman, men ham borardim.</i>	<i>Afsuslanish va ajablanishni ifodalaydi.</i>
22.	awalo	<i>Awalo, bu masalani batafsil o 'rganish kerak, keyin xulosa chiqaramiz.</i>	<i>Tartibni ko 'rsatadi.</i>
23.	dastlab	<i>Dastlab reja tuzib, keyin ishni boshlash kerak.</i>	<i>Tartibni ko 'rsatadi.</i>
24.	nihoyat	<i>Nihoyat, biz uchrashdik.</i>	<i>Tartibni ko 'rsatadi.</i>

25.	kerak	<i>Har bir ishni o 'z vaqtida bajarish kerak.</i>	<i>Zaruriyatni ifodalaydi.</i>
26.	zarur	<i>Har bir mutaxassis buni bilishi zarur.</i>	<i>Zaruriyatni ifodalaydi.</i>
27.	mumkin	<i>Bu yerda chekish mumkin emas.</i>	<i>Zaruriyatni ifodalaydi.</i>
28.	shart	<i>Buni bilishingiz shart. Kechaga rasmiy kiyinish shart emas, shunchaki, do 'stona uchrashuv.</i>	<i>Zaruriyatni ifodalaydi.</i>
29.	demak	<i>Demak, kelishdik, ertaga gaplashamiz.</i>	<i>Xulosani ifodalay di.</i>
30.	xullas	<i>Xullas, gap shit.</i>	<i>Xulosani ifodalaydi.</i>
31.	qisqasi	<i>Qisqasi, bu bir kitnda hal qilinadigan masala emas.</i>	<i>Xulosani ifodalaydi.</i>

KOMAKCIII

<i>Ko 'makchi</i>	<i>Ma 'nosi</i>	<i>Misol</i>
bilan	Birgalik ma'nosini ifodalaydi.	<i>Alisher bilan clars tayyorladim.</i>
	Vosita ma'nosini ifodalaydi. (yordamida)	<i>Qalam bilan chizdi.</i>
	va bog'lovchisi vazifasida qo'llanadi.	<i>Nok bilan uznm oldik.</i>
	Payt ma'nosini ham ifodalaydi.	<i>Eshik ochilishi bilan bolalar ichkariga kirishdi.</i>
uchun	-ga ma'nosida	<i>Men uchun bu juda muhim.</i>
	Narsaning kimga yoki nimaga atalganligini ko'rsatadi.	<i>Kitobni ukasi uchun sotib oldi.</i>
	Sabab ma'nosini bildiradi. (sifatdosh shakli bilan kelganda)	<i>Kechikkani uchun darsga kirmadi.</i>
	Evaziga, o'miga ma'nosini ifodalaydi.	<i>Mehnati uchun haq so'radi.</i>

72

	Maqsad ma'nosini bildiradi. (harakatnomi bilan kelganda)	<i>Bu institutga o 'qish uchun kelganman.</i>
kabi/singari/yanglig ⁴	o'xshatish, qiyoslash	<i>Men kabi siz ham juda charchadingiz. O 'qish singari o'qitish ham qiyin.</i>
sari/tomon	yo'nalish	<i>Yorug 'lik sari yo 'l ochildi. Borgan sari siz bilan gaplashish qiyin bo'lyapti.</i>
sayin	payt	<i>Run sayin havo isiyapti.</i>
qadar	chegara, makon	<i>Shu kunga qadar (shu kungacha) men bunday loyihada ishtirok etmagan edim.</i>
tufayli/sababli	sabab	<i>Sen tufayli/sababli shu yutuqlarga erishdik.</i>
haqida/to'g'risida	Fikr mavzusini ifodalaydi.	<i>Siz haqingizda gaplashmoqchiman.</i>
oldin/awai/ burun/ilgari	payt	<i>Ikki yil oldin men sizni tanimasdim.</i>
bo'yi	...davomida ma'nosini bildilardi.	<i>Run bo 'yi (kun davomida) sizni ko 'rmadim.</i>
holda/yo'sinda/ tarzda/ taxlitda	"shu usulda" degan ma'noni ifodalaydi.	<i>Charchagan holda keldi.</i>

73

orqali	vosita	<i>Siz orqali u bilan tanishdim.</i>
qarshi	zidlik	<i>Baxtga qarshi, bugun men ham kech qoldim.</i>
muvoftiq	ish-harakatning sodir bo'lishiga asos bo'lgan obyekt	<i>Qononga muvofiq ish ko'rdik.</i>
tashqari/ o'zga	"bu bilati bir qatorda" degan ma'noni beradi	<i>Diniy ilmlardan tashqari diinyoviy ilmlar ham bar.</i>
bo'lak/ boshqa	mustasnolik	<i>Sendan boshqa xonada hech kim yo'q edi.</i>
qarab	yo'nalish, oichov	<i>Kuchingga qarab ko'tar. Universitetga qarab (tomon) ketdi.</i>
qaraganda/ ko'ra	Qiyoslash, ma'lumot manbasini ifodalaydi.	<i>Menga qaraganda siz ancha tajribalisiz. Sizdan ko'ra aheha tajribali mntaxassislar bor. Yashirin xabarlarga qaraganda Alisher kitobini yozib tugatgan. Ma'lumotlarga ko'ra ertaga yomg'ir yog'ar ekan.</i>

boshlab/ tortib	harakatning boshlanish nuqtasi	<i>Shu kundan boshlab u o'zini boshqacha tuta boshladi.</i>
bo'ylab/ uzra	iizun narsa ustida harakat yonida	<i>Yo 7 bo'ylab azoq yurdim.</i>
yarasha	teng, mos, loyiq	<i>Mehnatiga yarasha to'laymiz.</i>
qaramasdan/ qaramay	to'siqsizlik	<i>Vaqtim kamligiga qaramasdan, uni kutdim.</i>
so'ng/ keyin	payt	<i>Bir haftadan keyin yana ishini boshlab yubordi.</i>
beri/ buyon	"shu kunga qadar" ma'nosida qo'llaniladi.	<i>Bir haftadan buyon/beri sizni qidiramiz.</i>
asosan/ binoan	ish-harakatning sodir bo'lishiga asos boigan obyekt	<i>Qarorga asosan ishni ko'rib chiqdik.</i>
doir	aloqadorlik, bog'liqlik	<i>Mavzuga doir savollaringiz borri?</i>

BOG'LOVCHI

BOG'LOVCHI	IZOH	MISOLLAR
va/ bilan/hamda	Bu bog'lovchilar so'zlam yoki gaplarni bog'laganda ular o'rtasidagi teng munosabatni ifodalaydi.	<i>Ahla bilan Aziz kechgacha gaplashib o'tirishdi.</i> <i>Kitob va daftaringizni oling.</i>
ham	Ba'zan "ham" yuklamasi "va" bog'lovchisi o'mida qo'llanishi mumkin.	<i>Qo'rqaman ham bilgirn keladi.</i> <i>Tabiiy ham foydali mahsulotlarni iste'mol qilish kerak.</i>
-u(-yu), -da	Bu yuklamalar "va", "lekin" bog'lovchilari o'mida qo'llanishi mumkin.	<i>Aziza o'rnidan turdi-da, (va) esliik tomon yurdi.</i> <i>Dasturxon atrofiga o'tirishdi-yu, (lekin) hech narsa yeyishmadi.</i>
lekin/ammo/biroq	Hodisa, narsa, ish-harakatni boshqasiga zid qo'yib ular orasidagi qarama-qarshi munosabatni bildiradi	<i>Havo ochiq, lekin ancha sovuq.</i> <i>Men unga salom berdim, ammo u alik olmadi.</i>
balki	Ushbu modal so'z bog'lovchi vazifasida qodlanganda, birinchi	<i>Faqat o'zi emas, balki do'stlari ham bundan jnda xursand bo'ldilar.</i>

	gapda ifodalangan fikmi tasdiqiydi va inkor qiladi.	<i>U nafaqat malakali mutaxassis, balki juda olijjanob inson ekan.</i>
ya'ni	Fikmi aniqlab, izohlab ko'rsatadi.	<i>Ishning ustalarini, ya'ni malakali mutaxassislarni taklif qildik.</i>
-ki	Kuchaytirish, aniqlash ma'nosini ifodalaydi.	<i>Bilamanki, sen ishonchimizni oqlaysan.</i>
chunki, negaki	Sabab-natija ma'nolarini ifodalaydi.	<i>Men ertaga kela olmayrnan, chunki muhim uchrashuvim bor.</i>
Shuning uchun, shu bois, shu tufayli	Sabab-natija ma'nolarini ifodalaydi.	<i>Ertaga muhim uchrashuvim bor, shuning uchun men kela olmayrnan.</i>
Agar, basharti, mabodo	Shart ma'nosini bildiradi, lekin -sa shart mayli bilan qo'llanishi kerak.	<i>Agar ertaga vaqtingiz bo'lsa, uchrashamiz.</i> <i>Mabodo ertaga kela olmasam, sizga qo'ng'iroq qilaman.</i>
go'yo, go'yoki	Qiyoslash va o'xshatish ma'nosini ifodalaydi.	<i>Go'yo hech narsani tushunmagandek, menga qaradi.</i>
deb	"deb" so'zi bog'lovchi vazifasida kelganda, sabab, maqsad, shart ma'nolarini ifodalaydi.	<i>Sizni ko'rgan deb kelgandim. (sizni ko'rish uchun keldirn)</i> <i>Dars bo'ldi deb, keldirn.</i>

YUKLAMA

YUKLAMA	IZOH	MISOLLAR
-mi	Sof so'roq va taajjub ma'nosini ifodalaydi.	<i>Ertaga kelasizmi?</i> <i>Shu gaplarni menga aytyapsizmi?!</i>
-chi	Buyruq, do'q, iltimos, istak, ta'kid, uqdirish ma'nolarini ifodalaydi.	<i>Sen-chi?</i> <i>Yaqin kelib ko 'r-chi! O 'qi-chi.</i>
-a; -ya	So'roq, his-hayajon, tasdiq, ishonch, taajjub, ajablanish ma'nolarini ifodalaydi.	<i>Shahar juda o 'zgarib ketibdi-ya?</i> <i>Chiroyli-ya?</i> <i>Juda aqlli bola ekan-a?</i>
hech/sira	Inkor ma'nosini ifodalaydi.	<i>Men uni sira tushunmadim.</i> <i>U o 'zi haqida hech gapirmaydi.</i>
na... na...	Inkor ma'nosini ifodalaydi.	<i>Na uyda, na ishda uni topa olmadim.</i>
-dir	Gumon, aniqsizlik ma'nosini ifodalaydi.	<i>Balki, u sizdan xafa bo 'lgandir.</i>

78

<i>xuddi, naq</i>	O'xshatish-qiyosiash. aniqlash ma'nolarini ifodalaydi.	<i>Uxuddi otasiga o 'xshaydi.</i>
<i>faqat (yolg'iz) -gina(-kina, -qina)</i>	So'zلامي chegaralab, ajratib ko'rsatish uchun qoilaniladi.	<i>Darsga faqat siz kelmadingiz.</i> <i>Do 'slimgagina ishonaman.</i>
<i>-ku,-u(-yu), -da, ax ir</i>	Kuchaytirish va ta'kidlash ma'nolarini ifodalaydi.	<i>Sizga kecha bit haqida gapirgandim-ku, unutingizmi?</i>
<i>ham</i>	O'zidan oldin kelgan so'zni ta'kidlab keladi.	<i>Men ham juda charchadim.</i> <i>Bugun ham dars bo 'ladimi?</i>
<i>-oq(-yoq)</i>	Kelishiklardan keyin kelsa, kuchaytirish. ravishdoshdan keyin kelsa, harakatning tezlik bilan sodir bo'lishini bildiradi.	<i>Bugunoq bu muammoni hal qilishimiz kerak.</i> <i>Uyga kelibog menga qo 'ng 'iroq qiling.</i>
<i>hattoki, nahotki</i>	Kuchaytirish va ta'kidlash ma'nolarini ifodalaydi.	<i>Hattoki men ham bilmay qolibman.</i> <i>Nahotki meni tanimadingiz, biz siz bilan oldin ham uchrashgandik.</i>

79

TAQLID SO'ZLAR

M	Taqlid so'zlar	Misol	Taqlid so'zdan yasalgan fe'Uar	Ma'nosi
1.	taq-taq	Tashqaridan taq-taq degan ovoz eshitildi.	taqillamoq Tashqaridan taqillagan ovoz eshitildi. Darvoza taqilladi. Poshnasi taqilladi.	Qattiq jismlar urilganda chiqadigan ovoz
2.	duk-duk	Yurak dud-duk uradi.	dukullamoq Yurak dukulladi.	Yurak urishidan eshitiladigan ovoz
3.	taqir-tuqur	Taqir-tuqur ovozdan uxlay olmadim.	taqirlamoq Nimaqir taqirlab ketdi.	Me tall narsalarning urulishidan chiqadigan ovoz
	taraq-turuq	Taraq-turuq ovozdan uxlay olmadim.	taraqlamoq Ko'chada nimadir taraqlib ketdi.	O'sha ovozning kuchlirog'

4.	jiz	Uni ko'rganimda yuragim jiz etdi.	jizillamoq Yuragim jizilladi. Yaramga dori surganda judayomon jizillatdi	Kuchli hayajonlanish Tuyg'ularning jo'sh urishi Yoqtirmoq Kesilgan joyga dori surgandagi og'riqni ifodalash
5.	g'ir-g'ir	Shamol g'ir-g'ir esdi G'ir etib borib keling.	g'irillamoq G'irillab borib keling.	Mayin esgan shamolni his qilish Shamoldek tez borib kelish
6.	shildir-shildir	Uzoqdan soyning shildir-shildir ovozi eshitilib turardi.	shildiramoq Sin' shildirayapti.	Sinning oqayotgan ovozi
7.	chip-chip	Issiqdan qo'lim bir-biriga chip-	chipillamoq Ez ilgan o'riklar yerda	Yopishqoq narsalarning ko'chishidan chiqadigan tovush

	<i>chilp-chilp</i>	<i>chip yopishib qolyapti.</i>	<i>chipillab yotardi.</i> <i>chilpillamoq</i> <i>Muzqaymoq issiqdan chilpillab ketibdi.</i>	<i>Erigan, ezilgan yopishqoq narsaga nisbatan ishlatiladi.</i>
8.	<i>quit-quit</i>	<i>Suvni quit-quit ichdi.</i>	<i>qultullamoq</i> <i>Suvni qultullatib ichdi.</i>	<i>Suyuqlikniyutgandayoki og'zi tor idishdan quyganda eshitiladigan tovush</i>
9.	<i>yalt-yult</i>	<i>Quyosh nurida ariqdagi suv yalt-yult qilardi.</i>	<i>yaltiramoq</i> <i>Tilla uzugi ko'zni qamashtiradigan darajada yaltillardi.</i>	<i>Nurdan tovlanmoq</i>
10.	<i>vij-vij</i>	<i>Chumolilar vij-vij.</i>	<i>vijillamoq</i> <i>bijirlamoq</i>	<i>Bijirlab, g'imirlab yotgan g'ij-g'ij qurt-qumursqa va sh. k.</i>
11.	<i>duv-duv</i>	<i>Hamma yog'da duv-duv gap.</i>	<i>duvullamoq</i> <i>Hamma yog'imga narsa duvullab toshib ketdi.</i>	<i>Ko'p</i>

12.	<i>g'ovur-g'uvur</i>	<i>Zaldan g'ovur-g'itvur ovoz keldi.</i>		<i>Odamlarning suhbatidan kelayotgan ovoz. (Odatda tushunarsiz)</i>
13.	<i>tars-turs</i>	<i>Hammayoqni tars-turs urib, jahl bi/an chiqib ketdi.</i>	<i>tarsillamoq</i> <i>Eshik shamoldan tarsillab yopildi.</i>	<i>Ikkita qaltiq narsaning bir-biriga jarangli urilishi</i>
14.	<i>shov-shuv</i>	<i>Shov-shuv ko'tarildi.</i> <i>Hammayoqda shov-shuv gap.</i>		<i>Biror xabarning tez sur'atda yoyilishi, tarqalishi. ovoza bo'lishi</i>
15.	<i>milt-milt</i>	<i>Suv milt-milt qaynardi.</i>	<i>miltillamoq</i> <i>Ko'kada yulduz miltillar.</i> <i>Sho'rva milt-milt qaynardi.</i>	<i>Bilinar-bilinmas tovlanish</i> <i>Suvningjuda sekin qaynashi</i>
16.	<i>shitir-shitir</i>	<i>Shitir-shitir ovoz eshitildi.</i>	<i>shitirlamoq</i> <i>Daraxt yaproqlari shamoldan shitirlardi.</i>	<i>Qog'oz, shox-shabba kabi mayda narsalardan chiqadigan tovush</i>
17.	<i>shuv</i>	<i>Bu xabarni eshitib</i>		<i>Yuqoridan pastlashish hissini</i>

		yuragim shuv etib ketdi.		beruvchi qo 'rqish, kuchli xavotir
18.	miyov-miyov	mushuk	miyovlamoq	mushukning ovozi
19.	vov-vov	it	vovullamoq irillamoq	itning ovovzi
20.	mo'	mol, sigir, ho 'kiz	mo 'lamoq	mol, sigir, ho 'kinning ovozi
21.	baa/ma	qo 'y, qo 'chqor	ma 'ramoq	qo y, qo 'chqorning ovozi
22.	qu-qu	parranda	ququlamoq	parranda ovozi
23.	viz-viz	arra, chivin, pashsha	vizillamoq	arra, chivin, pashshaning ovozi
24.	chug 'ur- chug 'ur	qushlar	chug 'urlamoq	qushlarning ovozi

UNDOV SO'ZLAR

No	Undov so 'zlar	Misol	Undov so 'zdan yasalgan fe 'liar	Izoh
1.	voy	Voy, kelganingizdan juda xursandman. Voy, boshim og 'riyarti.	voyvoylamoq	Xursandchilik, qoyil qolish, norozilik, achinish, qo 'rquv, cho 'chish, mammuniyat tuyg 'ularini ifodalaydi.
2.	eh	Eh, qanday go 'zalyurtda yashaymiz! Eh, kech qolibmiz-a.		Mammuniyat, achinish, afsuslanish tuyg 'ularini ifodalaydi.
i.	e	E, shu ham gapmi? E, menga umuman yoqmadi.		E'tiroz, achinish, nafrat, norozilik tuyg 'ularini ifodalaydi.
4.	hoy	Hoy, nima qilyapsiz?	hoyhoylamoq	Ajablanish, kesatish, chaqiruv ma 'nolarini ifodalaydi.
5.	iyе	Iye, hech kim yo 'q-ku!		Ajablanish, kutilmaganlik, e 'tiroz, ranjish hislarini ifodalaydi.
6.	assalomu alaykum, salom	Assalomu alaykum, xush kelibsiz!	salomlashmoq	

7.	<i>xayr</i>	<i>Xayr, ko 'rshguncha.</i>	<i>xayrlashmoq</i>	
8.	<i>hormang</i>	<i>Hormang, ishlar bo 'lyaptimi?</i>		<i>Odatda so 'rashishda va biror ish bilan band odamlar bilan salomlashganda qo 'llaniladi.</i>
9.	<i>bor bo 'ling</i>	<i>Rahmat, bor bo 'ling.</i>		<i>Odatda "hormang"ga javoban qo 'llaniladi.</i>
10.	<i>barakalla, balli</i>	<i>Barakalla, ishni zo V bajaribsiz.</i>		<i>Rag 'batlantirish ma 'nosini bildiradi.</i>
11.	<i>ofarin</i>	<i>Ofarin!</i>		<i>Qlqish, rag 'bat</i>
12.	<i>rahmat/ tashakkur</i>	<i>Rahmat, sizga ham o 'z minnatdorchilik bildirishga ruxsat bering.</i>	<i>rahmat aytmoq, tashakkur bildirmoq, minnatdorchilik bildirmoq</i>	<i>Minnatdorchilik</i>
13.	<i>shukr</i>	<i>Shukr, ancha yaxshiman.</i>	<i>shukr qilmoq</i>	<i>Mamnuniyat, tashakkur ma 'nolariga III:</i>
14.	<i>qulluq</i>	<i>-To 'ylar muborak bo 'Isin! -Qulluq!</i>		<i>Odatda "muborak bo 'Isin" ga javoban aytiladi.</i>
15.	<i>marhamat</i>	<i>-Iltimos, menga shu kitobni bering. -Marhamat. Marhamat, keling.</i>		<i>Odatda, iltimosga javoban aytiladi. Taklif ma 'nosi ham mavjud.</i>

MUNDARIJA:

1- MAVZU: SHAXS VA NARSANI IFODALASH.....	4
2- MAVZU: QARASHLILIK MA'NOSINING IFODALANISHI.....	7
3- MAVZU: BUYRUQ-ISTAK MA'NOSINING IFODALANISHI.....	11
4- MAVZU: BELGINI IFODALASH.....	13
5- MAVZU: IAXMINIYLIK VA NOANIQLIKNI IFODALASH.....	16
6- MAVZU: OTGAN ZAMON MA'NOSINING IFODALANISHI.....	19
7- MAVZU: HOZIRGI ZAMON MA'NOSINING IFODALANISHI.....	22
8- MAVZU: KELASI ZAMON MA'NOSINING IFODALANISHI.....	24
9- MAVZU: O'ZGALAR FIKRINI IFODALASH USULLARI.....	25
11- MAVZU: ISTAK-XOHISH MA'NOSINING IFODALANISHI.....	32
12- MAVZU: MAJBIRIYAT. ZARIRIYAT VA IMKONIYATNI IFODALASH.....	34
13- MAVZU: SHART MA'NOSINING IFODALANISHI.....	36
14- MAVZU: PAYT MA'NOSINING IFODALANISHI.....	39
15- MAVZU: O'RIN-JOY MA'NOSINING IFODALANISHI.....	42
16- MAVZU: SABAB MA'NOSINING IFODALANISHI.....	44
17- MAVZU: MAQSAD MA'NOSINING IFODALANISHI.....	47
18- MAVZU: TO'SIQSIZLIK MA'NOSINING IFODALANISHI.....	49

19- MAVZU: QIYOSLASH VA O'XSHAFISFI MA'NOSINI IFODALASH.....	52
20- MAVZU: CHEGARALASFI MA'NOSINING IFODALANISHI.....	55
ILOVALAR.....	57
OLMOSHLAR.....	57
FE'L NISBATLARI.....	60
KO'MAKCHI FE'L.....	64
MODAL SO ZLAR.....	68
KO'MAKCFH.....	72
BOG'LOVCFH.....	76
YUKLAMA.....	78
TAQLID SO'ZLAR.....	80
UNDOV SO'ZLAR.....	85

Босишга рухсат этилди 1.12. 2013.
Бичими 60x84 Vi6. Шартли 5,5 б.т. 110 нусхада босилди.
МСНЖ «Extremum-Press» bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Bog'ishamol ko'chasi 57 b.

© Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2013